

Ahmad Farg‘oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya bo‘limi



**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, O‘zbekiston Fanlar
Akademiyasi akademigi, filologiya fanlari doktori Qayumov
Azizxon Po‘latovich tavalludining
(1926-2018) 95 yilligi munosabati bilan
“Adabiyotshunos olim” nomli**

TAVSIYAVIY RO‘YXAT

Farg‘ona - 2021

Aziz Qayumov

(1926-2018)

Qayumov Azizxon Po‘latovich – adabiyotshunos, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi (1995), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1963), filologiya fanlari doktori (1961).

Azizxon Qayumov 1926 yilda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. 1949 yilda O‘rta Osiyo davlat universitetining sharq fakultetini tugatgan. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim, O‘zSSR Ministrlar Sovetida, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot hamda Qo‘lyozmalar instituti direktori. O‘zbekiston KPMK fan, oliy o‘quv yurtlari va maktablar bo‘limi, so‘ng fan va madaniyat bo‘limi mudiri, O‘zbekiston madaniyat vaziri, vazirning birinchi o‘rinbosari, O‘zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Kinematografiya davlat komiteti raisi, Toshkent madaniyat instituti rektori, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qo‘lyozmalar instituti direktori, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida ishlagan. Asosiy ilmiy ishlari Qo‘qon adabiy muhiti mavzusida olib borilgan. Azizxon Qayumov matnshunoslik sohasida ham samarali ish olib borgan. 1980 yilda Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati, 1996 yilda “Shuhrat” medali va 2003 yilda “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlangan.

Azizxon Qayumov o‘zining ota-bobolari kitobga, adabiyotga cheksiz mehr qo‘ygan kishilar bo‘lganini aytadi. Katta bobosi Abdurahim Mirzo Qo‘qon xoni saroyida Mirzaboshi bo‘lib ishlagan. Bobosi Abduqayum Mirzo Qo‘qonning usta hattotlaridan sanalgan. U kishi ko‘chirgan kitoblar hozir ham Toshkentdagi Sharqshunoslik institutining nodir qo‘lyozmalaridan hisoblanib keladi. Azizxon Qayumov otasi Po‘lat Qayumovning muallim, onasi Adolatxon aya ham xat-savodli ayol bo‘lganlarini hikoya qiladi. “Dadam Navoiy, Fuzuliy, Mashrab g‘azallarini xuddi Qur‘on tilovat qilgandek chiroyli ohang bilan o‘qirdilar. G‘azal ohanglari hozir ham qulog‘im ostida jaranglaydi. Oiladagi ana shu muhit meni bolalikdan kitobga oshno qilgan, butun hayot yo‘limni belgilab bergan” - deydi domla . “Hoziq”, “G‘oziy”, “Qo‘qon adabiy muhiti”, “Qadimiyat obidalar”, “Beruniy va adabiy ijod”, “Ishq vodiysi chechaklari”, “Ibn Sino va Beruniy” kabi ilmiy asarlar muallifi. “Saddi Iskandariy”, “Alisher Navoiy”, “Hayrat ul-abror”, “Farxod va Shirin” sirlari”, “Nodir sahifalar”, “Bu ohang ila bo‘lg‘aysen Naqshband” kabi asarlari Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosini o‘rganishda muhim hissa bo‘lgan. Azizxon Qayumov matnshunoslik sohasida ham samarali ish olib borib, bir qancha o‘zbek mumtoz shoirlarining asarlarini nashrga tayyorlagan. 2008 yildan boshlab “Mumtoz so‘z” nashriyotida olimning 10 tomlik asarlar to‘plamini nashr qilish boshlangan. To‘plamning dastlabki to‘rt tomi Alisher Navoiyning ijodiy merosiga bag‘ishlangan. U, shuningdek, Navoiy ijodini o‘rganishga bel bog‘lagan ko‘plab olimlarga ustozlik qilgan. Domlaning rafiqasi Inessa Qayumova ham sharqshunos. Azizxon Qayumov 2018 yil 16 fevral kuni 93 yoshida vafot etdi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi Qayumov Azizxon Po‘latovich hayoti va faoliyatining asosiy sanalari.

1926 yil – Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan.

1949 yil – O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning filologiya fakultetini tamomlagan.

1949 yil – O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim sifatida ish boshlagan.

1954-1962 – nomzodlik va doktorlik dissertasiyasini himoya qilgan.

1995 yil – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi etib saylangan.

1979-1998 – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti direktori, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti bo‘lim mudiri, Madaniyat vaziri, Davlat kinematografiya komiteti raisi, Toshkent davlat madaniyat instituti rektori, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar instituti direktori kabi mas‘uliyatli lavozimlarda samarali xizmat qilgan.

1989 yil – O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining muxbir a‘zosi.

1993 yil – “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” hamda Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureatiga sazovor bo‘lgan.

1995 yil – O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi bo‘lgan.

1995-2000 – yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati sifatida faoliyat olib borgan.

1998 yildan – hayotining oxirgi kunlarigacha Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining yetakchi ilmiy xodimi vazifasida sidqidildan mehnat qildi.

1995 yil – “O‘zbekiston belgisi”.

1995 yil – “Shuhrat” medali.

2003 yil – “El-yurt hurmati” ordeni.

2014 yil – “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni mukofotlari bilan taqdirlangan.

2018 yil 16 fevral – Azizxon Qayumov 93 yoshida vafot etgan.

Aziz Qayumov kitoblari:

1956

1. Qayumov, A. Maxmur: O‘zbek adabiyoti tarixidan materiallar / A. Qayumov. – Toshkent: Fan, 1956. – 138 b.

Ushbu kitobda o‘zbek adabiyoti tarixidan materiallar berilgan, bunda shoir Maxmurning ijodiy merosi haqida ma’lumotlar berilgan.

2. Qayumov, A. G‘oziy / A. Qayumov; Muharr. P. Shamsiyev. – Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi, 1959. – 142 b.

Ushbu kitobda G‘oziyning ijodini o‘rganish haqida ma’lumotlar berilgan.

1974

3. Qayumov, A. Beruniy va adabiyot / A. Qayumov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 141 b.

Taniqli adabiyotshunos Aziz Qayumovning Beruniy va adabiyot risolasida buyuk olim va mutaffakir Abu Rayhon Beruniyning adabiyot va san’atga oid fikrlari, kuzatishlari, qarashlari bayon qilinadi.

1975

4. Qayumov, A. Saddi Iskandariy: Alisher Navoiy haqida / A. Qayumov. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975. – 196 b.

Filologiya fanlari doktori, professor A. P. Qayumov ushbu risolada Alisher Navoiyning dostonnavislikdagi mahoratini hamda falsafiy fikrlarini ilmiy tahlil qilib bergan. Asar adabiyot ixlosmandlariga manzur bo‘lar degan umiddamiz.

1976

5. Qayumov, A. Alisher Navoiy: Ajoyib kishilar hayoti / A. Qayumov. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1976. – 157 b.

Ushbu kitobda Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida lavhalar berilgan. Kitob keng kitobxon ommasiga mo'ljallangan.

1979

6. Qayumov, A. Farxod va Shirin sirlari: Ezgulik va sevgini ulug'lovchi motivlar / A. Qayumov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 168 b.

Ushbu kitobda Aziz Qayumovning Farxod va Shirin sirlari haqidagi ma'lumotlar berilgan.

1985

7. Qayumov, A. Ishq vodiysi chechaklari / A. Qayumov; Muharr. A. Qosimov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – 256 b.

Ushbu kitobda ulug' shoir Alisher Navoiyning "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" asarlari o'ziga xos ommabop tilda tadqiq etiladi.

1987

8. Qayumov, A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino: / A. Qayumov; Muharr. Xurshid Davron. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987 (Matbuot). – 240 b.

Filologiya fanlari doktori Aziz Qayumov ushbu kitobini O'rta Osiyolik ulug' olimlar Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiga bag'ishlagan.

1992

9. Qayumov, A. Nazm va tafakkur quyoshi: Jomiy vafotining 500 yilligiga / A. P. Qayumov; Muharr. X. Zaripova. – Toshkent: Fan, 1992. – 48 b.

1992 yilda ulug' shoir va mutafakkir, Alisher Navoiyning ustoz va do'sti Abdurahmon Jomiy vafotiga 500 yil to'ldi. Mazkur risolada Jomiyning hayot yo'li, uning Navoiy bilan hamkorligi va do'stligi badiiy bo'yoqlarda bayon etilgan.

1996

10. Qayumov, A. Amir Temur qissalari / A. Qayumov; Muharr. F. Kamolova. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. – 32 b.

Ushbu risolada Amir Temurga oid ba'zi qo'lyozma va toshbosma qissasalar to'g'risida so'z boradi.

1998

11. Qayumov, A. Ahmad Farg'oniy: broshyura / A. Qayumov; Muharr. A. O'ktam. –Toshkent: Cho'lpon, 1998 (Matbuot). – 48 b.

Buyuk bobokalonimiz Ahmad al - Farg'oniy astronomiya, falsafa kabi aniq fanlar bo'yicha o'z davrida olamshumul ishlarni amalga oshirganlar. Mazkur kitobda bobomizning hayoti va ilm - fan sohasida amalga oshirgan ishlari haqida hikoya etadi.

Azizxon Qayumov muharrirlik qilgan kitoblar:

1985

12. Alisher Navoiy: Hikmatli so'zlar / Muharr. A. Qayumov. – Toshkent: Markaziy komitet, 1985 (Mexnat kizil bayrok). – 144 b.

Ushbu kitobchada ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning asarlaridan olingan hikmatli so'zlari to'plangan.

1990

13. Furqat ijodiyoti / Muharr. A. Qayumov. – Toshkent: Fan, 1990 (Fan). – 194 b.

Ushbu to'plamda o'zbek xalqining sevimli shoiri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning boy adabiy merosi yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlari yoritilgan. To'plam o'qituvchi va talabalarga mo'ljallangan.

1991

14. Alisher Navoiy. Layli va Majnun dostonidan: / Alisher Navoiy; Muharr. A. Qayumov. – Toshkent: O'zbekistan, 1991 (Matbuot). – 125 b.

Ushbu kitobda Layli va Majnun orasidagi samimiy sevgi haqida, ikki oshiq ishq yo'lida halok bo'lganligi bayon qilingan. Kitob keng kitobxon ommasiga mo'ljallangan.

1992

15. Qodirova, M. Shoiri Muazzamxon / M. Qodirova; Muharr. A. Qayumov. – Toshkent: Fan, 1992 (Matbuot). – 199 b.

Ushbu risolada shoiri Muazzamxonning hayoti va ijodi haqida, uning ijod yo'llari turli mavzudagi g'azallari tahlil etilgan. Risola keng kitobxon ommasiga mo'ljallangan.

16. Nodira. Ey sarvi ravon: G'azallar / Nodira; Muharr. A. Qayumov. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1992 (Matbuot). – 144 b.

Ushbu majmuada shoiraning Komila tahallusi bilan jamlangan, yangi aniqlangan devonidagi o'zbekcha she'rlaridan namunalar berilgan. Kitob keng kitobxon ommasiga mo'ljallangan.

1994

17. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon: broshyura / Zahiriddin Muhammad Bobur; Muharr. A. Qayumov. – Toshkent: Fan, 1994 (Fan). – 144 b.

O'zbek mumtoz adabiyotning yirik namoyandasi, mashxur davlat arbobi, atoqli sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan ilmiy, tarixiy va adabiy meros uzoq asrlar davomida saqlanib kelmoqda.

1996

18. Dadaboyev, X. Amir Temurning harbiy mahorati: broshyura / X. Dadaboyev; Muharr. A. Qayumov. – Toshkent: Yozuvchi, 1996 (Matbuot). – 96 b.

Ushbu risolada Temurbekning jahonshumul obro'-e'tibor va shon-shuhrat topishida bosh omil xisoblangan jihat, ya'ni sarkardalik iste'dodi, harbiy mahorati, jahon harb san'ati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi u tuzgan armiyaning tarkibiy tuzilishi aks etgan.

2001

19. Alisher Navoiy. Munshaot: Maktublar / Alisher Navoiy; Muharr. T. Xobilov, Muharr. A. Qayumov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001. – 152 b.

2010

20. Muhammad Xaydar Mirzo. Tarixi Rashidiy: / Muhammad Xaydar Mirzo; Tarj. V. Rahmonov, Ya. Egamova, Muharr. A. Qayumov. – Toshkent: Sharq, 2010 (Sharq). – 720 b.

Ushbu kitobdagi pand-nasihatlar izzat-hurmatli kishilardan ibrat olishga va ogoh bo'lishga undaydi. Kitob tarix bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

2014

21. Rasulova, N. Ilmga bag'ishlangan umr / N. Rasulova, Asilova; Muharr. A. P. Qayumov. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. – 154 b.

Mazkur kitobda taniqli sharqshunos olim Abdufattoh Rasulovning hayot yo'li, ilmiy-ijodiy faoliyati va O'zbekiston ilmiga qo'shgan hissasi haqida xujjatlar asosida so'z yuritiladi. Risola ilmni qadrllovchi, ahli ilm vakillarining hayoti va faoliyatiga qiziquvchi kitobxonlarga mo'ljallangan.

2017

22. Amiriy. Devon: o'zbekcha she'rlar / Amiriy T.1 / Muharr. A. Qayumov, Muharr. I. Xaqqul. – Toshkent: Tamaddun, 2017. – 452 b.

Amiriyning she'riyati o'zining badiiy barkamolligi, teran fikrlar va hassos tuyg'ular o'z ifodasini topganligi, badiiy san'atlarga boyligi bilan so'z san'ati shaydolari diqqatini hamisha o'ziga jalb qilib kelgan. Uning diltortar g'azallari xalq orasida mashhur bo'lib, kuyga solib ijro etilgan. Shoirning devoni g'azal, muhammas, musaddas, musamman, tarje'band, tuyuq janridagi lirik she'rlarni o'z ichiga oladi.

Рус тилида:

23. **Фуркат.** Час рассвета / Фуркат. – Ташкент: Литература и искусство, 1978. –160 с.

Слово “Фуркат” в переводе означает “разлука”. Этот псевдоним удивительно созвучен с содержанием поэтического творчества и горькой судьбой узбекского поэта-демократа второй половины 19-начало 20 веков.

Aziz Qayumov haqida matbuot nashrlarida chop etilgan maqolalar:

Jurnallar:

2008

24. Rahmatullayeva, I. Yor o‘ling bir-biringizga, ki erur yorlig ish!: [Qo‘qonlik akademik Azizxon Qayumov haqida] / I. Rahmatullayeva // Jannat makon. – 2008. – № 2. – B. 26-32.

2016

25. Hasanov, S. Adabiyotshunosligimiz darg‘asi: [Maqola taniqli adabiyotshunos va matnshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, akademik A. P. Qayumov haqida] / S. Hasanov // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2016. – № 1. – B. 120-122.

Gazetalar:

2014

26. Salohiy, D. Odamiylik timsoli: [Fanimizning zahmatkash olimi, akademik Azizxon Qayumov haqida] / D. Salohiy // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2014. – 5 dek. – B. 2.

27. Tojiboyev, P. Komillikka intilish baxti: [Atoqli adabiyotshunos olim, fan arbobi, Qo‘qonlik Azizxon Qayumov hayoti va ijodi haqida] / P. Tojiboyev // Turkiston. – 2014. – 13 dek. – B. 1, 5.

2017

28. Qayumov, A. Kitob - ma’rifat quyoshi: [Maqola mamlakatimizda kitob mutolaasiga bo‘lgan e’tibor haqida] / A. Qayumov // Xalq so‘zi. – 2017. – 6 yanv. – B. 4.

29. Qayumov, A. Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi: [Amiriy ijodi haqida] / A. Qayumov // Ma’naviyat. – 2017. – № 16. – B. 3.

2018

30. Akademik Azizxon Qayumov: nekrolog // Xalq so‘zi. – 2018. – 20 fevr. – B. 3.

Рус тилида:

2015

31. Каюмов, А. Под созвездием Навои: [Беседа с доктором филологических наук, заслуженным деятелем науки, лауреатом Государственной премии, академиком Азизом Каюмовом. Беседовала Ирина Рибар] / А. Каюмов // Учитель Узбекистана. – 2015. – № 37. – С. 7.

Tuzuvchi: G. Valiyeva.